



GENDER EQUALITY AND OPPORTUNITIES CREATED FOR WOMEN IN UZBEKISTAN ARE AN IMPORTANT STEP FOR DEVELOPMENT

Umida Bo'ranova¹

Head of the Republican Spirituality and Enlightenment Center, Tashkent city, Yangihayot district

DOI: 10.5281/zenodo.15767248

Article History	Abstract
Received: 17.03.2025 Accepted: 31.03.2025	This article analyses gender equality and the opportunities created for women in Uzbekistan as an important factor of national development. It reviews the laws, decrees, state strategies, statistical data, and their impact on the socio-economic development of the country based on a scientific approach.

Keywords: Gender equality, women's rights, opportunities for women, Uzbekistan, state policy, laws and decrees, gender strategy, women's employment, economic development, social progress, national development, women's entrepreneurship, women's education, gender policy, sustainable development.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Head of the Republican Spirituality and Enlightenment Center, Tashkent city, Yangihayot district, Uzbekistan

O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK VA AYOLLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR TARAQQIYOT UCHUN MUHIM QADAMDIR

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Gender tenglik, ayollar huquqlari, ayollar imkoniyatlari, O'zbekiston, davlat siyosati, qonunlar va farmonlar, gender strategiya, ayollar bandligi, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, milliy taraqqiyot, ayollar tadbirkorligi, ayollar ta'limi, gender siyosati, barqaror rivojlanish

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va ayollar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar milliy taraqqiyotning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Mavzuga oid qonunlar, farmonlar, davlat strategiyalari, statistika hamda ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilmiy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Gender tenglik bugungi kunda nafaqat inson huquqlari masalasi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki ayolning jamiyatdagi o'rni faqatgina oila doirasida emas, balki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida faol bo'lishi, o'z salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishi orqali davlat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Aslida, ayolning faolligi va salohiyatidan foydalanmagan jamiyat hech qachon to'laqonli rivojlanishga erisha olmaydi. Ayol – nafaqat ona, nafaqat oila tarbiyachisi, balki jamiyat taraqqiyotining ilhomchisi va harakatlantiruvchi kuchidir. Shu sababli, ayollarga yaratilayotgan imkoniyatlar mamlakatning ertangi kunini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'nggi yillarda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida ham xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, gender tenglik masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zero, kuchli davlatning asosi kuchli jamiyat bo'lsa, kuchli jamiyatning asosi esa o'z salohiyatini to'liq namoyon eta oladigan, bilimli, ongli va faol ayollardir.

Jumladan, 2019-yil 2-sentabr kuni qabul qilingan "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 562-sonli Qonuni mamlakat tarixida ilk bor gender tenglikni huquqiy jihatdan mustahkamlab berdi. Bu qonun faqat bir hujjat emas, balki jamiyatimizda asrlar davomida shakllangan ayrim stereotiplarni bartaraf etish, ayolni jamiyat hayotining barcha jabhalarida teng huquqli subyekt sifatida ko'rishning yuridik kafolati bo'ldi. Ushbu qonunning mazmun-mohiyatiga ko'ra, erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlar davlat kafolati sifatida belgilanib, barcha sohalarida gender tenglikni ta'minlashning huquqiy asoslari yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada oshirdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-81-sonli Farmoni bilan xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning

jamiyatdagi o'rnini yanada mustahkamlash, davlat boshqaruvida ularga kengroq yo'l ochish, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan rag'batlantirish masalalari bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Farmonda gender tenglik davlatning ijtimoiy barqarorligi va milliy taraqqiyotining muhim kafolati sifatida alohida qayd etilgan.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakuniga kelib, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tarkibida ayollar ulushi 32% ga yetgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2015-yilda atigi 16% edi. Bu ikki barobardan ortiq o'sishdir. Shuningdek, sud tizimida ayollar ulushi 27%, prokuratura tizimida esa 19% ni tashkil etmoqda. Bu raqamlar o'z-o'zidan paydo bo'layotgani yo'q, balki yurtimizda olib borilayotgan oqilona siyosat, xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor va ishonchning amaliy samarasidir. Ayniqsa, xususiy tadbirkorlar orasida xotin-qizlarning ulushi 27,5% ga yetgani ularning iqtisodiy faolligi yildan yilga oshib borayotganini anglatadi. Bu esa oilalarning moliyaviy barqarorligi, bolalarning ta'lim olishi, sog'lom muhitda ulg'ayishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, qishloq joylarda "Ayollar daftari" orqali 2023-yilda 1 million 200 mingdan ortiq xotin-qizning muammolari o'rganilib, ularning 580 ming nafari kasb-hunarga o'qitilgan, 125 ming nafari esa o'z tadbirkorligini boshlagan. Bundan tashqari, "Ayollarni band qilish markazlari" tarmog'i orqali tikuvchilik, hunarmandchilik, parrandachilik, sartaroshlik va boshqa yo'nalishlarda minglab ish o'rinlari yaratilmoqda. Menimcha, bu kabi markazlar ayollar uchun nafaqat ish joyi, balki o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, jamiyatda o'z o'rnini topish va o'zini qadrlash maktabi hamdir.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, gender tenglik masalasi O'zbekistonda faqat huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki siyosiy sohada ham jiddiy islohotlar orqali rivojlanmoqda. Bunga misol tariqasida, barcha darajadagi rahbar kadrlarga gender mas'uliyatini oshirish bo'yicha alohida kurslar tashkil etilgani, tuman va shahar hokimlari o'rinbosarlari lavozimiga xotin-qizlar masalalari bo'yicha mas'ul rahbarlar tayinlash tizimi yo'lga qo'yilganini keltirish mumkin. Bu esa ayollar muammolari faqat ayollar muammosi emas, balki davlatning asosiy siyosiy yo'nalishlaridan biri ekanini ko'rsatadi.

Jahon banki tahlillariga ko'ra, gender tengligi ta'minlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishi 20–30% ga yuqori bo'ladi. Sababi, ayollar salohiyatidan to'laqonli foydalanish yangi ish o'rinlarini yaratadi, ichki talabni oshiradi, oilalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi, ijtimoiy muhitda barqarorlikni kuchaytiradi va demokratik qadriyatlarni mustahkamlaydi. Shu bois O'zbekiston gender tenglikni BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari-2030, xususan, BRM-5 doirasida ham milliy manfaat sifatida e'tirof etgan holda, ushbu yo'nalishda izchil islohotlarni davom ettirmoqda.

Shaxsan men o'ylaymanki, gender tenglik – bu shunchaki davlat siyosati yoki xalqaro majburiyat emas, balki har bir insonning ongidan boshlanadigan madaniyatdir. Har bir o'g'il bolaga, har bir qiz bolaga gender tenglikni tushuntirish, hurmat va mas'uliyatni uqtirish orqali kelajak avlodni yanada ongli, taraqqiyparvar qilib tarbiyalaymiz. Chunki ayolning o'zni yuksak bo'lgan jamiyatning o'zi ham rivojlanadi, taraqqiy etadi, dunyo miqyosida raqobatbardosh davlatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta'minlash to'g'risidagi Qonuni. – Toshkent: 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-81-son Farmoni. – Toshkent: 2022-yil 7-mart.
3. O'zbekiston Respublikasi 2021–2025 yillarga mo'ljallangan Gender strategiyasi. – Toshkent, 2021.
4. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari // gender.stat.uz – 2024.
5. World Bank. Gender equality and economic growth. – Washington DC, 2020.